

## TAZIYIQ VA ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN XOTIN QIZLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH

**Rizvonkulov Aminjon Xamidjanovich**

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy  
siyosiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yonalishi 4-bosqich talabasi*

**Qurbondurdiyeva Zamira Maqsudbekovna**

*Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti  
ijtimoiy ish yo'nalishi 405-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xotin-qizlar bilan ishlash tizimiga kiritilgan o'zgartirishlar va yangiliklar, olib borilayotgan isloxotlar haqida fikrlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xotin-qizlar, oila, xotin-qizlar tadbirkorligi, og'ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar, "Ayollar daftari" o'zbekona urf-odat va an'analar.*

Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar:

**"Bitta qiz bolani o'qitsangiz - butun oilani o'qitgan bo'lasiz"**, deb bejiz ta'kidlamaganlar. Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo'lib, jamiyatda hamda o'z oilasida munosib o'rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundankeyin ham izchil davom ettiramiz - deb ta'kidladilar.

Bu borada, avvalo, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan **Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturini** qabul qilinishi va ushbu hujjat doirasida poytaxtda xotin-qizlar uchun alohida universitet va joylarda uning texnikumlarini tashkil etilishi, barcha talaba qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinishi xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Shuningdek, 2022 yil 7 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF- 87 sonli "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni tasdiqlandi.

Oila, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va o'zaro hamkorligini ta'minlash, xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar

samaradorligini oshirish, turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni «Ayollar daftari» orqali manzilli qo'llab-quvvatlash, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan muhosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarini saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish Farmonning ustivor maqsadidir.

Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida yangi tizim Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etildi

Ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ularga davlat tomonidan manzilli tarzda ko'maklashish tizimini joriy qilishda, xotin-qizlar muammolarini «Ayollar daftari» ni yuritish orqali hal etilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 5-martda qabul qilingan «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida sudlarda faoliyat olib borayotgan ayol sudyalardan sayyor uchrashuvlar va qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Reabilitatsiya markazlarida zo'rlik ishlatilishidan jabr ko'rgan xotin-qizlarga qanday ijtimoiy yordamlar ko'rsatiladi va bu kabi markazlarga asosan kimlar murojaat qilishi mumkin?

Mamlakatimizda og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, jumladan, oilaviy muammolar va turmushida zo'rlik ishlatilishiga duch kelgan shaxslarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, ruhiy, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko'rsatish maqsadida Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari ish olib boradi. Yurtimizda bunday markazlarning soni 197 taga yetdi.

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida ushbu markazlarga fuqarolardan 14 849 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 5796 tasiga psixologik, 3 680 tasiga yuridik, 503 tasiga tibbiy va 1553 tasiga boshqa turdagi yordamlar ko'rsatilgan.

Murojaat qilganlarning 2577 nafari bilan markaz psixologlari ish olib borgan, tibbiy yordamga muhtoj 497 nafar shaxsga birinchi yordam ko'rsatilib, tibbiyot muassasalariga yuborilgan. 442 nafar fuqaro markazlardagi yotoqxonalarga joylashtirilgan va ularga zarur yordamlar ko'rsatilgan.

O'zaro tahlillar davomida murojaatchilarning 9870 nafari yoki 67 foizga yaqini faqat yuridik va psixologik maslahat olish uchun murojaat qilgani va ularda zo'ravonlikka uchrash alomatlari yo'qligi aniqlangan.

Mazkur mazmundagi murojaat egalariga 2000 ta huquqiy yordam, xususan, 1539 tasiga huquqshunoslar tomonidan maslahatlar berildi. 217 nafar fuqaroga turli mazmundagi huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirishda, 189 nafar fuqaroning Himoya orderi olishida yordam berildi. 55 nafariga sud va boshqa idoralarda huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda vakillik qilindi.

Afsuski, mazkur turdagi markazlarga erkaklar va hatto bolalarning murojaat qilishi holatlari kuzatilmoqda. Shu yilning o'tgan davri mobaynida jismoniy zo'ravonlikka uchragan 18 nafar bola va 168 nafar erkaklar murojaati qabul qilingan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, jismoniy zo'ravonlik asosan oilalarda sodir etilib, er-xotin, qaynona-kelin yoki kuyov o'rtasidagi turli mojarolar oqibatida yuzaga kelmoqda.

**O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ravonlik** — O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi har qanday ayol jinsiga mansub shaxsga nisbatan ruhiy, jismoniy, jinsiy va boshqa ko'rinishlarda amalga oshiriluvchi jinoiyatlar to'plami. Bu kabi jinoiy hodisalar, asosan, erkak jinsiga mansub shaxs tomonidan ayol jinsiga taalluqli sherigiga nisbatan amalga oshirilgan zo'ravonlik holatlari, jumladan, kaltaklash, psixologik zo'ravonlik, oilaviy zo'rlash, qotillik, jinsiy tajovuz va ta'qiblar, shuningdek, zo'rlash, zo'ravonlik bilan jinsiy aloqada bo'lish, istalmagan jinsiy oqibatlar, bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik, majburiy nikoh, ko'cha bezoriligi, ta'qib qilish, cyberbullying kabi tazyiqlar ta'sirida xotin-qizlar huquqlarining poymol qilinishi orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda 2021-yilning birinchi yarmi davomida qariyb 18 ming nafar ayol tazyiqqa uchragani aniqlangan. Ulardan 9 ming nafari ruhiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan. Respublikada ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida 2019-yilning 2-sentabr sanasida amal qilish muddatini boshlagan O'RQ-561-sonli „Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish“ to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni rasman e'lon qilingan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ta'lim muassasasida zo'ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo'llanma / V. Adescalita, R. Josanu, I. Moldovanu, T. Epoyan tomonidan tahrirlangan - Kishinyov, 2017.-- 128b.

2. Volkova E.N., Volkova I.V., Isaeva O.M. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishini baholash // Ijtimoiy psixologiya va jamiyat. 2016. 7-jild. No 2. 19-34-betlar.

3. Aptikieva L.R., Aptikiev A.X., Bursakova M.S. Zo'ravonlikdan omon qolgan o'smirlar bilan psixologik-pedagogik ishlarni tashkil etish // Orenburg davlat universitetining axborotnomasi No 9 (170), 2014. P.4-9.

4. Malkina-Pykh IG Inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam - Moskva: Eksmo nashriyoti, 2005. - 960 p.